

AXBOROTNI MUHOFAZA QILISH TUSHUNCHASI, UNING KO'RINISHLARI VA BELGILARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-2-211-219>

Yigitaliyev Ohunjon Haliljon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Ommaviy axborot vositalari huquqi” yo'nalishi magistranti

ohunjonyigitaliyev118@gmail.com

ANNOTATSIYA

Global tarzda rivojlanib borayotgan bugungi kunda shaxs, jamiyat va davlatning axborot olish va uni tarqatish, shu jumladan, uni muhofaza qilish borasidagi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Axborotning muhofazalanganligi orqali esa xavfsizlik ma'lum miqdorda ta'minlanadi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi texnika va texnologiya rivojlangan davrda axborotni yetarli darajada huquqiy, tashkiliy va texnikaviy jihatdan ximoyalash dolzarb masala bo'lib ulgurdi. Ushbu maqolada ham aynan bugungi kunda axborot olamida yuz berayotgan turli hil hujum va ta'sir choralariga qarshi kompleks chora-tadbirlar ko'rishning usul va vositalari haqida qisqacha tahlil berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborotni muhofaza qilish, muhofaza shakllari va uslublari, kibernuhofaza choralari, axborot hurujiga qarshi immunitet, muhofaza dasturlari, dasturiy ta'minot.

АННОТАЦИЯ

В современном глобализированном мире вопросы доступа, распространения и защиты информации личностью, обществом и государством, в том числе ее защита, становятся приоритетными. А при защите информации обеспечивается определенная безопасность. С этой точки зрения, в современный технологически развитый век адекватная правовая, организационная и техническая защита информации стала актуальным вопросом. В данной статье также дается краткий анализ методов и средств принятия комплексных мер против различных атак и воздействий, происходящих сегодня в информационном мире.

Ключевые слова: информационная безопасность, формы и методы защиты, меры кибербезопасности, устойчивость к информационным атакам, программы защиты, программное обеспечение.

ABSTARCT

Growing on a global scale, the state of the day is a person, a society and a stable acquisition of information and its dissemination, the development of this society. It receives information through the receipt of information. From this point of view, in the process of development of modern equipment and technology, it has become a matter of developing a sufficient legal, organizational and technical management to protect it. Here is a brief analysis of the methods and production of a comprehensive response to various attacks and attacks in the information world today.

Keywords: *information security, forms and methods of protection, cybersecurity measures, immunity against information attacks, protection programs, software.*

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy axborot telekominikatsiyalar rivojlanib borayotgan davrda har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati va unga qo'yiladigan talablarning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o'tmishga nazar soladigan bo'lsak, davlatlarning harbiy- strategik va iqtisodiy ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar va maxfiy xabarlar qat'iy sir tutilgan va himoya choralari kuchaytirilgan. Bugungi kunga kelib esa axborot ham ishlab chiqarish texnologiyalariga ega bo'ldi va u mahsulot sifatida "axborot-tovar ko'rinishiga ega bo'lib, ichki va tashqi bozorda unga bo'lgan talab ortib bormoqda"¹. Axborot telekominikatsiyalar rivojlana borgan sari zamonaviy huquqbuzarliklar ham paydo bo'lib bormoqda. Shu munosabat bilan axborot texnologiyalarini avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo'nalishlarida muntazam ravishda tashkiliy va huquqiy choralar amalga oshirilmoqda va himoyalash mexanizmi ham mukammallashib bormoqda. "Axborot xavfsizligi deganda, keng ma'noda axborotni tasodifiy yoki qasddan ta'sir qilishdan himoya qilish vositalari majmuiga aytiladi"².

"Zamon rivojlanib borgan sari axborotga qarshi kompyuter jinoyatchiligi va kiberjinoyatchiliklarning yangidan yangi turlari paydo bo'lib, inson, jamiyat va davlat manfaatlari xavfsizligiga ta'sir ko'rsatmoqda"³. Shuning uchun xam axborotni

¹ Imomniyozov, D. B. O. (2021). KORPORATSIYA IJRO ORGANLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 588-600.

² Qurbonova, F. C. (2021). AXBOROT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI VA UNING VAZIFALARI. Интернаука, (19-6), 5-6.

³ Jumayev, Bekzod Baxtiyor O'G'Li (2021). O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHGA DOIR XALQARO STANDART HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA DAVLATLARNING MANFAATLI HAMKORLIGI MASALALARINING DOLZARBLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (5), 80-86.

muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati va ahamiyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishni va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishni taqazo etmoqda. Axborot olish va uning muhofazasi davlat ahamiyatiga molik masala ekanligini birinchi prezidentimizning ta’biri bilan aytganda *“fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o‘z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinliklarini o‘zida mujssam etgan bo‘lib, bu O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslari barpo etishning muhim sharti, ta’bir joiz bo‘lsa, tamal toshi xisoblanadi”*⁴. Shunga ko‘ra mamlakatimizda yuqoridagi masalalarni tartibga soluvchi «Axborotlashtirish to‘g‘risida», «Axborot erkinlikligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida», «Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida», «Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma’lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to‘g‘risida» gi qonunlar va qonun osti hujatlari hamda bir qator Hukumat qarorlari qabul qilingan va amalga tatbiq etib kelinmoqda.

Axborotni muhofaza qilish axborotni har qanday ko‘rinishda yo‘qotishga qaratilgan harakatlardan himoyalashga qaratilgan amaliy va tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va axborotning ximoyalanganlik holati tushuniladi. Jumladan ushbu harakatlar quyidagilarda ko‘rinadi; o‘g‘irlash, buzish, qalbakilashtirish va boshqalar. “Axborotni muhofaza qilish choralari axborot xavfsizligiga oid mavjud va amaldagi qonun va me’yoriy huquqiy hujjatlar asosida va axborotdan foydalanuvchilarning manfaatlarini ta’minlash yuzasidan amalga oshiriladi”⁵.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Axborotni yuqori darajada muhofaza qilishni ta’minlash uchun mamlakatlar muntazam ravishda huquqiy, ilmiy va texnikaviy ximoya vositalarini shakllantirish hamda takomillashtirib borishlari zarur. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan⁶ qonunida axborotni muhofaza qilish tushunchasi va huquqiy kafolatlari belgilab qo‘yilgan. Ushbu qonunga ko‘ra *“axborotni muhofaza etish: axborot borasidagi xavfsizlikka taxdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora tadbirlari”*⁷ dir. Axborotni muhofaza qilish zarurati, avvalo, axborot tushunchasining o‘zidan ham anglanib turadi. Ya’ni, axborot deb: saqlash,

⁴ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi. – T., 2010.

⁵ Boltayeva, Dilsora (2021). **NORMATIV HUQUQ ME’YORLARIDA AXBOROT XURUJIDAN HIMOYA MASALALARI**. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (7), 196-200.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. ---T., 2003. -- №1 –2-M

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. ---T., 2003. -- №1 –2-M

o'zgartirish, va muayyan maqsadlar uchun foydalanish obyekti bo'lgan har qanday axborotga aytiladi. Bu tushuncha shuni anglatadiki, inson hamisha axborot makonining ta'sirida bo'ladi. "Axborot muhofazasini buzish orqali bugungi kunda insonlarga asosan mulkiy va ma'naviy zarar yetkazilmoqda"⁸. Bu shuni anglatadiki, har qanday davrda ham axborot va uning muhofaza qilinishi bilan bo'g'iq munosabatlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilib kelingan. Axborotni muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- tizimli tahlil qilish orqali informatsion taxdidlarni aniqlash va oldini olish;
- jinoiy harakatlarga qarshi kurashish va oldini olish;
- maxfiy va shaxsiy axborotlarning tarqalib ketishini oldini olish;
- axborot resurslariga noqonuniy kirishning oldini olish;
- axborotlarning ishonchliligi va to'liqliligini ta'minlash;
- mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish;
- kibexujumdan insonlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish;
- davlat va jamiyatga real va extimoliy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan va bo'layotgan taxdidlardan ishonchli himoya qilish;
- shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasini amaliy va tashkiliy jihatdan ta'minlash;
- "yuridik va jismoniy shaxslarning mulk bilan bog'liq fuqarolik huquqiy munosabatlarida mulkiy va nomulkiy huquq va manfaatlarini amalga oshirish"⁹;
- "xalqaro maydonda davlatlar va tashkilotlar o'rtasidagi savdo va tijorat munosabatlarida ishonchli munosabatlarni yo'lga qo'yish"¹⁰ qilish va boshqalar.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, axborotni muhofaza qilish deganda jamiyat, shaxs va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan barcha usul, uslub, chora va vositalar majmuini tushunishimiz mumkin. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqsak, axborot bazalariga qonuniy kirish huquqiga faqatgina axborot egasi yoki foydalanuvchisi unga o'zgartirish kiritish, ma'lumotlarni o'chirish yoki to'ldirish va qayta ishlash huquqiga ega hisoblanadi. "Axborotning muhofaza

⁸ Asadov, S. F. O. G. L. (2021). FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA DAVLAT ISHTIROKI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 789-799.

⁹ Koryogdiyev, B. U. O. (2021). BITIMNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH VA UNING OQIBATLARINI QOLLASH FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VOSITASI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 211-225.

¹⁰ Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIV TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.

qilinishi uning ishonchliligidan ham ma'lum bir miqdorda dalolat berishi mumkin"¹¹. Axborot xavfsizligini ta'minlash va uning ishonchli muhofaza qilinishi o'zga shaxslar tomonidan unga ruxsatsiz kirishning oldini olish, nazorat qilish va shu kabilarga xizmat qiladi. Axborotning muhofaza tizimini buzib kirish orqali bir qator huquqbuzarliklar amalga oshiriladi, shu jihatni hisobga olib, axborotga kirishdan oldin uning muhofazasini buzish uchun qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqishini eslatuvchi qisqa matn yoki lavha qo'yish ham bugungi kunda insonlarni hushyorlikka chorlamogda. "Bugungi kunda axborot tizimiga taxdidlarning 100 dan ortiq usullari va turlari mavjud bo'lib, ularg qarshi tura olish uchun albatta axborot makonida muntazam ravishda ximoya choralari kuchaytirib va takomillashtirib borish darkor. Taxdid va kiberhujum esa axborot obyetlariga jiddiy zarar keltiradi"¹². Ko'pgina hollarda, axborot muhofazasi xodimlarning axborotni saqlash va ximoya qilish tizimlarini tashkiliy jihatdan to'g'ri amalga oshirmaganligi va bu bo'yicha tegishli malakaga ega emasligi tufayli kelib chiadi.

Axborotning muhoza qilinishida jamiyat manfatlari quyidagilarda ko'rinadi: shaxs manfatlarini ta'minlash, demokratik qadriyatlarni mustaxkamlash, ijtimoiy-huquqiy davlat barpo etish, ijtimoiy hamjihatlikni qo'llab quvvatlash, milliy qadriyatlarning poymol bo'lishini oldini olish va boshqalar. Huddi shu jihatlar va manfatlar davlatda ham o'z aksini topadi. Axborot xavfsizligi tizimi davlat uchun avvalo milliy xavfsizlik masalsi bilan chambarchas bog'liqdir. "Ko'plab davlatlarda, tijorat yoki bankga doir ma'lumotlarga nisbatan noqonuniy harakatlar amalga oshirish jinoyat hisoblanadi. Shu bilan birga juda kam sonli davlatlarda bu kabi ma'lumotlarni yig'ish sanoat yoki tijorat josusligi hisoblanadi"¹³. Demak, davlat axborot xavfsizligini ta'minlash siyosati orqali milliy axborot infrastrukturasini shakllantirish, axborot olishda shaxs va fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirish, davlatning hududiy birligini, suverenitetini, hududiy birligini, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash, qonuniylik va huquq tartibotni izchil amalga oshirish, o'zaro tenglik va xalqaro hamkorlikda faol tashqi siyosat olib borish va boshqa maqsadlarni ko'zlaydi. Axborotni muhofaza qilish

¹¹ Imomniyozov, D. B. O. (2021). KORPORATSIYA IJRO ORGANLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 588-600.

¹² Евгения Югай (2021). Цифровая культура и общество: проблемы их взаимоотношений в условиях глобализации. Общество и инновации, 2 (7/S), 58-67. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp58-67

¹³ Raxmatova, Yulduz (2021). AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA CHET EL DAVLATLARINING QONUN HUJJATLARI TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1

tizimli va kompleks ravsihda amalga oshirilmasa o'zining samarasini bemasligi mumkin.

Ushbu muammoni hal etishda avvalo huquqiy-ma'muriy, protsessual va dasturiy chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish orqaligina ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin. "Ta'kidlash joizki, ayrim ish faoliyat sohalarida bevosita axborotning muhofaza qilinishi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib, bank va moliya sektorlari, bevosita axborot bilan ishlovchi soha vakillari, davlat boshqaruvi tuzilmalari, mudofa va xavfsizlik ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus xizmat tashkilot va organlarini aytishimiz mumkin"¹⁴. Shu jihatlarni e'tiborga oladigan bo'lsak, axborotning muhofaza qilinishi ham turlicha ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Bugungi kunda axborot bilan bog'liq munosabatlarning muhofazasini mutaxassislar uchga bo'lib taxlil qiladilar:

a) Huquqiy himoya choralari: bunday muhofaza shaklida, tegishli mamlakatda axborotning muhofazasi, avvalambor, huquqiy jihatdan tartibga solinadi va tegishli normativ huquqiy baza yaratiladi. Bunday huquqiy asoslar yaratilayotganda, avvalo, har bir davlat xalqaro huquq normalari ustunligi prinsipiga qat'iy amal qilgan holda milliy huquqiy asoslarini yaratadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida quyidagi qonun va qonun osti hujjatlari axborot va uning muhofazasi bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi; *"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"*gi qonun, *"Axborotlashtirish to'g'risida"* qonun, *"Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"*gi qonun, *"Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"*gi qonun, *"Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"*gi qonun, *"Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"*gi qonun, *"Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi Prezident farmoni, *"Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"*gi Prezident farmoni, *"Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi Prezident qarori, *"Noshirlik faoliyati to'g'risida"*gi qonun va qonun osti hujjatlari.

b) Tashkiliy-texnikaviy choralari: bunday muhofaza shaklida, har qanday jismoniy va yuridik shaxslar o'zlari uchun dastlabki himoya tizimini yaratadilar. Bunday muhofaza shaklida har qanday tashkilot va shaxs o'z faoliyati va xizmat va

¹⁴ Umarov, A. M. O. G. L. (2021). AXBOROT XAVFSIZLIGI XAVFINI BAHOLASH. *Scientific progress*, 2(8), 293-300.

dvlat siri hisoblangan axborotlar uchun dasturiy ta'minot va boshqa vositalardan foydalangan holda muhofaza choralari amalga oshiradi. Bunga misol qilib bugungi kunda keng foydalaniladigan quyidagi ximoyaviy tashkiliy-choralarni sanab o'tishimiz mumkin: *elektron va texnikaviy qulf (parol), face control, ID control, finger scanner, sound finder va boshqalar*.

c) Ma'muriy ta'sir choralari: bunday muhofaza shaklida axborot egasining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday chora-tadbirlarga axborot va uning himoyasi bilan shug'ullanuvchi maxsus xizmat va tashkilotlar, davlat organlari va muassasalarni tashkil etish va shu orqali axborot muhofazasini ma'muriy jihatdan tartibga solish, amlaga oshirish misol bo'la oladi. Bundan tashqari, axborotni muhofaza qilishning ma'muriy ta'sir choralari axborot muhofazasini buzgan huquqbuzarlar uchun tegishli tartibda javobgarlik masalalarini belgilash va javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini taminlash ham kiradi. Aynan shu ximoya ta'sir choralari orqali axborot muhofazasi buzilganda, shaxsning va davlatning huquq va manfaatlarini yuridik jihatdan himoya qilinadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, zamon taraqqiy etib borar ekan, har bir shaxs, jamiyat va davlat bugungi axborot makonining tez suratlarda rivojlanib borayotganligini hisobga olib, axborot muhofazasini har taraflama takomillashtirib borishi darkor. Kiberjinoyatchilik, axborot hurujlari, dezinformatsiya, sohta axborot tarqatish, qalbakilashtirish, informatsion taxdid va bosim o'tkazish kabi yangidan yangi huquqbuzarliklarning oldini olish uchun har bir shaxs, avvalo, dastlabki himoya mexanizmini shakllantirishi va joriy qilishi, davlatlar esa o'z yurisdiksiyasi doirasida xalqaro huquq normalariga muvofiq tarzda yuridik mexanizmni ishlab chiqishlari, mavjud yuridik mexanizmlarni esa takomillashtirib borishlari, axborot makonida sodir etilayotgan turli huquqbuzarliklar uchun qat'iy kurashishi, jazo choralari esa axborotning hususiyatlaridan va ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda kuchaytirishi darkor. Axborot muhofazasini ta'minlashda ilg'or horij tajribasini o'rganish, kuchli himoya-dasturiy ta'minotlarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish, bu sohada rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlik qilish axborot muhofazasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

REFERENCES

1. Imomniyozov, D. B. O. (2021). KORPORATSIYA IJRO ORGANLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 588-600.
2. Qurbonova, F. C. (2021). AXBOROT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI VA UNING VAZIFALARI. *Интернаука*, (19-6), 5-6.
3. Jumayev, Bekzod Baxtiyor O'G'Li (2021). O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHGA DOIR XALQARO STANDART HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA DAVLATLARNING MANFAATLI HAMKORLIGI MASALALARINING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (5), 80-86.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi. – T., 2010.
5. Boltayeva, Dilsora (2021). NORMATIV HUQUQ ME'YORLARIDA AXBOROT XURUJIDAN HIMOYA MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (7), 196-200.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. ---T., 2003. -- №1 – 2-M
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. ---T., 2003. -- №1 – 2-M
8. Asadov, S. F. O. G. L. (2021). FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA DAVLAT ISHTIROKI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 789-799.
9. Koryogdiyev, B. U. O. (2021). BITIMNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH VA UNING OQIBATLARINI QOLLASH FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VOSITASI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 211-225.
10. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.

-
11. Imomniyozov, D. B. O. (2021). KORPORATSIYA IJRO ORGANLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 588-600.
 12. Евгения Югай (2021). Цифровая культура и общество: проблемы их взаимоотношений в условиях глобализации. *Общество и инновации*, 2 (7/S), 58-67. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp58-67
 13. Raxmatova, Yulduz (2021). AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA CHET EL DAVLATLARINING QONUN HUJJATLARI TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1
 14. Umarov, A. M. O. G. L. (2021). AXBOROT XAVFSIZLIGI XAVFINI VANOLASH. *Scientific progress*, 2(8), 293-300.
 15. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.